

**“TASDIQLAYMAN”**

**Transport nazorati**

**Inspeksiyasi xodimlarini  
attestatsiyadan o’tkazish  
komissiyasi raisi**



**M.Omarov**

**2024-yil “11”**

**11**

**Transport nazorati inspeksiyasi Avtomobil va suv transportida nazorat boshqarmasi, Temir yo'l transporti va metropolitenda nazorat boshqarmasi,  
Yo'l qurilish ishlarini nazorat qilish boshqarmasi hamda ularning hududiy  
bo'linmalari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish**

## **SAVOLNOMASI**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy savollar**

*(barcha xodimlar uchun)*

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” 2019-yil 1-fevraldag'i PQ-4143-son qarori mazmun va mohiyati.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 1-fevraldag'i PF-5647-son Farmoni mazmun va mohiyati.

3. O'zbekiston Respublikasi Transport nazorati inspeksiyasi tashkiliy tuzilmasi haqida nimalar bilasiz?

4. O'zbekiston Respublikasi Transport nazorati inspeksiyasi vazifalari va funksiyalari nimalardan iborat?

5. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan nazorat tartibidagi tekshiruvlar qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan?

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar o'z ifodasini topgan?

7. Nazorat qiluvchi organlarning mansabдор shaxslarini tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi qaysi normativ hujjatga asosan belgilangan?

8. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tartibini buzganlik uchun mansabдор shaxslarning javobgarligi qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilangan?

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar haqida aytib bering?

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmoni qabul qilinishining bosh maqsadi va ahamiyati nimalardan iborat?

11. “O'zbekiston-2030” strategiyasining ustuvor yo'nalishlari haqida sanab bering.

12. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining bo'linish prinsiplari

12. hamda uning mazmun-mohiyati haqida gapirib bering.
13. Tadbirkorlik subyektlari nazorat qiluvchi organlarning mansabдор shaxslarini qaysi hollarda tekshiruv o'tkazish uchun o'z hududiga qo'ymaslik huquqiga ega?
14. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonunining mazmun-mohiyati.
15. O'zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi?
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Yoshlar ma'naviyatini yanada yuksaltirish bo'yicha ilgari surilgan tashabbusining mohiyati.
17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati.
18. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari haqida batafsil gapirib bering
19. Tekshiruv bilan tadbirkorlik subyektining bevosita tekshiruv predmeti bilan bog'liq bo'lган faoliyat davri necha yili qamrab olinadi?
20. O'zbekiston qanday davlat?
21. Murojaatlarning qanday turlari va shakllari mavjud?
22. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz?
23. O'zbekiston Konstitutsiyasida eng oliy qadriyat deb nima e'tirof etilgan?
24. Qanday masalalar referendumga qo'yiladi?
25. Tekshirilgan tadbirkorlik subyekti tekshiruv dalolatnomasini olishdan va (yoki) uni imzolashdan bosh tortganda, nazorat qiluvchi organning mansabдор shaxsi qanday yo'l tutadi?
26. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar qaysi tizim orqali ro'yxatga olinadi?
27. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni qaysi davlat vakillik organi amalga oshiradi?
28. Gender tengligi deganda nimalarni tushunasiz?
29. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bir kunlik muddatda o'tkaziladigan tekshiruvni kelishish uchun buyurtma kim tomonidan kiritiladi?
30. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan fuqarolarning burchlari.
31. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari soni qancha, ularni saylash va tayinlash tartibi qanday?
32. Shaxsiy huquq va erkinliklar deganda nimani tushunasiz?
33. Tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektining tekshiruv o'tkazish uchun asos bo'lган hujatlarni olishdan bosh tortganligi tekshiruvni bekor qilish uchun asos bo'ladimi?
34. Muddati bir kundan ortiq bo'lган tekshiruvni kelishish uchun buyurtma kim tomonidan kiritiladi?
35. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra siyosiy huquqlarini aytib bering?
36. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlarning natijalari hamda profilaktika tadbirlari to'g'risida ma'lumot tekshiruv yoki profilaktika

tadbirlari tugagan kundan boshlab necha kun ichida “Yagona davlat nazorati” axborot tizimiga kiritiladi?

37. Tadbirkorlik subyektining ilgari tekshirilgan faoliyat davridagi predmeti va obyekti bo‘yicha qayta tekshiruv o‘tkazishga va tadbirkorlik subyekti tomonidan avval taqdim etilgan hujjatlarni talab qilishga haqlimi?

38. Transport turlarini ayting?

39. Profilaktika tadbirini o‘tkazish uchun vakolatli organ bilan kelishish yoki uni xabardor qilish tartibi qaysi normativ-hujjatda aks ettirilgan?

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o‘tkazishni muvofiqlashtirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qanday normativ hujjat qabul qilingan?

41. “Xavfni tahlil etish” tizimi natijalariga asosan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida necha ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini xabardor qiladi?

42. Vakolatli organ deganda kimlarni tushunasiz?

43. Nazorat qiluvchi organlar deganda kimlarni tushunasiz?

44. Tadbirkorlik subyektlari deganda kimlarni tushunasiz?

45. Tekshiruv deganda nimani tushunasiz?

46. Tekshiruv dasturi deganda nimani tushunasiz?

47. “Yagona davlat nazorati” axborot tizimi deganda nimani tushunasiz?

48. Tadbirkorlik subyektlari ularda o‘tkazilayotgan tekshiruv haqidagi hamda ularning faoliyatini tekshirayotgan nazorat qiluvchi organlar to‘g‘risidagi ma’lumotni kimdan, qayerdan, qanday olishi mumkin?

49. Tadbirkorlik subyektining faoliyatini tekshirishda kimlar ishtiroy etishi mumkin?

50. O‘tkazilgan tekshiruvdan norozi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari kimlarga murojaat qilishga haqli?

51. Buyurtmaga qanday hujjatlar ilova qilinadi?

52. Nazorat qiluvchi organ tekshiruvni o‘tkazish kelishilgan kundan boshlab qancha muddat ichida tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risida buyruq qabul qiladi va buyruqda qanday ma’lumotlar ko‘rsatiladi va unga qaysi hujjatlar ilova qilinadi?

53. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlar qanday muddatlar doirasida bo‘lishi lozim?

54. Nazorat qiluvchi organ «xavfni tahlil etish» tizimi natijalariga asosan o‘tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishidan oldin qanday ishlarni amalga oshiradi?

55. Nazorat qiluvchi organning mas’ul xodimlari tekshiruv boshlanishidan oldin tadbirkorlik subyekti rahbarini qanday hujjatlar bilan tanishtirishi va qanday harakatlarni amalga oshirishi lozim?

56. Qaysi hujjat va kun tekshiruv o‘tkazishni boshlash uchun asos hisoblanadi?

57. Nazorat qiluvchi organlar qaysi hollarda vakolatli organga tekshiruv

o‘tkazishni tashabbus qilishga haqli?

**58.** Nazorat qiluvchi organlar tomonidan «xavfni tahlil etish» natijalari asosida aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha tadbirkorlik subyektiga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llash mumkinmi?

**59.** Mehnat shartnomasi turlari?

**60.** Mehnat shartnomasining taraflari ?

**61.** Mehnat shartnomasi qanday muddatga tuziladi ?

**62.** Dastlabki sinov muddatlari kimlarga tatbiq etilmaydi?

**63.** Intizomiy jazo choralarining turlari va intizomiy jazoning amal qilish muddati ?

**64.** Ish vaqtining normal muddati?

**65.** Ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta’tillar muddati?

## **II. Avtomobil transporti sohasi**

*(Avtomobil transporti xodimlari uchun)*

Avtomobil va suv transportida nazorat boshqarmasi va hududiy bo‘limlari xodimlari uchun savollar:

**1.** Qaysi normativ hujjat bilan Transport vazirligi inspektorlariga avtomobillarda tashuvilar sohasida huquqbuzilishlar to‘g‘risidagi protokollar (ma’muriy bayonnomalar) tuzish vakolati berilgan?

**2.** Transport nazorati inspektorlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining qaysi moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar yuzasidan ma’muriy bayonnomalar tuzadi?

**3.** O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining qaysi moddasi bilan Tashuvchining o‘z fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha majburiyatini bajarmasligi uchun jazoga tortiladi va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining qaysi moddasi bilan yo‘lovchilarni chiptasiz tashish uchun jazoga tortiladi va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

**5.** O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining qaysi moddasi bilan avtomobil transportida chiptasiz yurish uchun jazoga tortiladi va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

**6.** Kabotaj nima?

**7.** O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy tashuvchilar tomonidan kabotaj tashish holati aniqlansa nima chora ko‘riladi?

**8.** O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining qaysi moddasiga ko‘ra Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan litsenziyasiz shug‘ullanish uchun jazoga tortiladi va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

**9.** O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining qaysi moddasiga ko‘ra Yagona tanish belgilari bilan jihozlanmagan yoki belgilangan talablar buzilgan holda jihozlangan taksilarni yo‘lga chiqarish uchun jazoga tortiladi

va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

10. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining qaysi moddasiga ko'ra "Boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tkazilgan yuklarni va (yoki) yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanish" uchun jazoga tortiladi va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

11. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining qaysi moddasiga ko'ra Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risidagi qonunchilikni buzish uchun jazoga tortiladi va unda qanday jazo chorasi belgilangan?

12. Huquqbuzar tomonidan hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaslik yoki xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilish holatlari kuzatilganda inspektor tomonidan qanday ishlar amalga oshiriladi va qanday jazo choralarini bor?

13. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomada qanday ma'lumotlar aks ettiriladi?

14. Huquqbuzarga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani sudlarga yuborish va ko'rib chiqish tartibi qanday?

15. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 2541 – moddasi bilan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi organlariga qanday vakolatlar berilgan?

16. Qaysi normativ hujjat bilan yo'nalihsiz taksilar faoliyati tartibga solingan?

17. Yo'nalihsiz taksilarni tashqi jihozlash nimalarni o'z ichiga oladi?

18. Yo'nalihsiz taksi haydovchilariga qanday talablar qo'yiladi?

19. Avtomobilda xalqaro tashuvlarda qatnashadigan avtotransport vositalari ekipajlari ishiga tegishli Yevropa bitimi qachon va qayerda imzolangan.

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 668-soni qarori mazmun va mohiyatining ayting?

21. Qaysi me'yoriy hujjat bilan taxograf qurilmalaridan foydalanish shartlari belgilangan va haydovchi kartasining amal qilish muddati qancha?

22. Bayonna ma'lumotlari va dalolatnomalarini yo'qotilganda qanday tartibda ishlar amalga oshiriladi?

23. Yo'lovchi tashish yo'nalihsilarida tashuvchi tomonidan tender talab va shartlariga rioya etilishi qanday me'yoriy hujjat bilan tartibga solinadi hamda uni nazorat qilish shakllari qanday va kim nazorat qiladi?

24. O'zbekiston Respublikasining "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni mazmuni nimalardan iborat?

25. Litsenziyat to'g'risida nimani tushunasiz?

26. Litsenziya deganda nimani tushunasiz?

27. Inspeksiya va uning hududiy bo'linmalarining avtomobilda tashishlar va harakat xavfsizligi ta'minlanishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirish bo'yicha vazifalari hamda funksiyalari nimalardan iborat?

28. Ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning huquq va burchlari qaysi normativ hujjatda ko'rsatilgan va unda nimalar belgilangan?

**29.** Avtotransport vositasining ishini aniqlash va hisobga olish uchun belgilangan namunadagi yuridik hujjat nomini aytib tushuncha bering?

**30.** Avtomobil transporti to‘g‘risidagi Qonunga asosan mijozning majburiyatlari?

**31.** Xavfli yuklarni avtomobil transportida tashish qoidalari haqida tushuncha bering?

**32.** Xavfli yuklarga nimalar kiradi?

**33.** Xavfli yukka hamrohlik qilish uchun mas’ul shaxsning majburiyatlarini aytib bering?

**34.** Taxograf haqida tushuncha bering?

**35.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi 238-sonli qarori mazmun-mohiyati nimalardan iborat.

**36.** Avtomobil transportida yo‘lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solingan va ushbu hujjatda nimalar belgilangan?

**37.** O‘zbekiston Respublikasi umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida yuk avtotransport vositalari uchun ruxsat etilgan gabarit bo‘yicha me’yorlar qaysi normativ hujjatda belgilangan va me’yorlarini aytib bering?

**38.** O‘zbekiston Respublikasi umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida yuk avtotransport vositalari uchun ruxsat etilgan vazn bo‘yicha me’yorlar qaysi normativ hujjatda belgilangan va me’yorlarini aytib bering?

**39.** Avtombilda xorijiy yuk tashuvchilarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishlari, yuk olib o‘tishlari va undan chiqib ketishlari tartibi qaysi normativ hujjatga muvofiq tasdiqlangan?

**40.** Avtotransport vositalarining vazn parametrlarini aniqlashda o‘lchash asbobining necha foizli farq bilan ishlashiga yo‘l qo‘yiladi?

**41.** Yukning balandligi yo‘l sathidan necha metrdan yuqori bo‘lgan taqdirda shahar elektr transporti, elektr tarmog‘i va boshqa aloqador tashkilotlar bilan kelishish shart?

**42.** Katta hajmli va og‘ir vaznli yuklar bilan avtotransport vositasida umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida harakatlanishga va ma’lum yo‘nalishda harakatlanishga kim tomonidan ruxsatnomaga beriladi hamda mazkur ruxsatnomada nimalar aks ettiriladi?

**43.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil yo‘llari bo‘ylab katta hajmli va og‘ir vaznli avtotransport vositalarining harakatlanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun-mohiyatini aytib bering?

**44.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga avtomobil transportida yo‘lovchi va yuk tashish faoliyatini litsenziyalash hamda yo‘nalishlarni biriktirish bo‘yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish va o‘tkazish tartibini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori bilan nimalarga o‘zgartirishlar kiritilgan?

**45.** Transport vositalari vaznlarining ortiqchaligi uchun to‘lov yurib o‘tilgan

xar-bir kilometr yo‘l uchun qancha miqdorda pul undiriladi?

**46.** O‘qqa tushadigan maksimal og‘irlik deganda nimani tushunasiz va qanday me’yorlar belgilangan?

**47.** Aniqlangan huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qancha vaqt davomida «Ye-ma’muriy ish» tizimiga kiritiladi va elektron tizim vaqtincha faoliyat ko‘rsatmagan holda nima ishlar amalga oshiriladi?

**48.** Agar fuqaro o‘zi sodir etgan huquqbazarlik faktiga e’tiroz bildirib, ma’muriy bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda qanday yo‘l tutiladi?

**49.** Avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablar qanday normativ-huquqiy hujjatda belgilangan va ushbu hujjat mazmun-mohiyati haqida aytib bering?

**50.** Avtomobil transportida yo‘lovchilarni tashish qanday turlarga bo‘linadi va ularga izoh bering?

**51.** Shaharlar, shahar atrofi va viloyatlar ichidagi yo‘nalishlarda yangi yo‘nalishlarni ochish qaysi davlat organi tomonidan amalga oshiriladi?

**52.** Shahar yo‘lovchilar transporti deganda nimani tushunasiz?

**53.** Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarni bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti qaysi me’yoriy hujjatda keltirilgan?

**54.** O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi qachon tashkil topgan?

**55.** O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasining avtomobil transporti yo‘nalishidagi asosiy vazifalarini aytib o‘ting?

**56.** Inspeksiya hududiy bo‘linmalarining avtomobil va suv transporti nazorati bo‘yicha bo‘yicha huquqlari hamda javobgarligini aytib bering?

**57.** Litsenziya talablari va shartlari nimalardan iborat hamda bu talablar tashuvchiga qanday hujjat bilan yuklatiladi va qaysi normativ-Huquqiy hujjatda belgilangan.

**58.** Avtomobil transportida tashishlarni amalga oshirish sohasida litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirishda nazorat qiluvchi organ qanday ishlarni amalga oshiradi?

**59.** Tender talab va shartlari nimalardan iborat hamda bu talablar tashuvchiga qaysi hujjat bilan yuklatiladi, ushbu talablar va shartlar qanday tartibda nazorat qilinadi va qaysi normativ-huquqiy hujjatda belgilangan.

**60.** Transport nazorati inspeksiyasi inspektorlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining qaysi moddalarida nazarda tutilgan va qaysi huquqbazarliklar bo‘yicha ma’muriy bayonnomalar tuziladi?

**61.** Yo‘lovchilarni tashuvchi haydovchilarga qo‘yiladigan talablari aytib bering va ushbu talab qaysi me’yoriy hujjatda belgilangan?

**62.** O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida shahar yo‘lovchilar transportida bepul yurish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar kimlar va ushbu tartib qaysi me’yoriy hujjatda belgilangan?

**63.** Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida tekshiruvlar o'tkazishni tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan va unda qanday tartiblar belgilangan?

**64.** "Xavfni tahlil etish" tizimi natijalariga asosan o'tkaziladigan tekshiruvlarning boshlanishi haqida kamida necha ish kuni oldin tadbirkorlik subyektini xabardor qiladi?

**65.** Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida bir kunlik muddatda o'tkaziladigan tekshiruvni kelishish uchun buyurtma kim tomonidan kiritiladi?

**66.** Muddati bir kundan ortiq bo'lgan tekshiruvni kelishish uchun buyurtma kim tomonidan kiritiladi?

**67.** Tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektining tekshiruv o'tkazish uchun asos bo'lgan hujatlarni olishdan bosh tortgan holatda qanday ishlar amalga oshiriladi?

**68.** Tekshirilayotgan tadbirkorlik subyektining tekshiruvlarni ro'yxatga olish elektron kitobiga qanday ma'lumotlar kiritiladi?

**69.** Tekshiruv bilan tadbirkorlik subyektining bevosita tekshiruv predmeti bilan bog'liq bo'lgan faoliyat davri necha yili qamrab olinadi?

**70.** Tekshirilgan tadbirkorlik subyekti tekshiruv dalolatnomasini olishdan va (yoki) uni imzolashdan bosh tortganda nima ish qiladi?

**71.** Avtomobilda tashuvchi tomonidan haydovchilarga yo'l harakati xavfsizligi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish tartibi bo'yicha tushuncha bering va haydovchilarga necha turdag'i yo'riqnomalar beriladi?

**72.** Avtomobilda tashuvchining yo'l harakati xavfsizligi xizmatini tashkil etish va YHX xizmatining tuzilishi haqida tushuncha bering?

**73.** Yo'naliishga chiqish oldidan avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi va texnik ko'rikdan o'tkazish uchun yaratilishi kerak bo'lgan sharoitlar haqida gapirib bering?

### **Suv transportida nazorat bo'limi xodimlari uchun savollar**

**1.** Transport nazorati inspeksiyasining suv transportiga oid faoliyati nimalardan iborat?

**2.** Transport nazorati inspeksiyasiga kema egalari tomonidan qonun buzilish holatlari sodir etilganda qanday huquqlar berilgan?

**3.** Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldag'i 106-som qarori bilan qaysi hujjat tasdiqlangan?

**4.** Suv transporti sohasidagi faoliyat qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?

**5.** Avtomobil va suv transportida nazorat hududiy bo'limlarining Kemachilik registri bosh inspektorlarining suzish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalari nimalardan iborat?

**6.** Kema haydovchisiga nomzodlarni attestatsiyadan o'tkazish qaysi normativ-hujjat asosida o'tkaziladi?

**7.** Kema haydovchisiga nomzodlarni attestatsiyadan o'tkazish, o'quv

muassasasidan o‘quv kursini tugatganlik to‘g‘risida hujjatlar kelib tushgandan keyin, necha ish kunida amalga oshirilishi kerak?

8. Kemada qanday holatlarda navbatdan tashqari texnik ko‘rik o‘tkaziladi va bunday texnik ko‘rikning hajmi va tartibi?

9. Kemalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish uchun to‘lov qaysi normativ-hujjat asosida belgilab qo‘yilgan?

10. Qanday holatda kemalardan foydalanish taqiqlanadi va bu qaysi me’yoriy hujjatda belgilab qo‘yilgan?

11. Suv transportida nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlarining mansabдор shaxslari kemalardan belgilangan vazifalariga muvofiq to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilish bo‘yicha nimalarga haqli?

12. Kemalar tarkibidagi ekipaj a’zolari oqim bo‘yicha harakatlanishi va xavfli uchastkalardan o‘tishi davrida qanday choralarни ko‘rishi shart?

13. Kemalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish davrida tuziladigan texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma va xabarnoma shakli qaysi normativ hujjat bilan tasdiqlangan?

14. Kemalar belgilangan texnik ko‘riklardan o‘tkazilgandan keyin qanday hujjatlar rasmiylashtirilib beriladi va ularning amal qilish muddati qancha?

15. Kema egasi uni xarid qilgandan so‘ng qancha muddat ichida uni ro‘yxatga qo‘yish uchun kemalarni davlat ro‘yxatiga oluvchi organga murojaat qilishi shart?

16. Kema bortida qaysi hujjatlar bo‘lmaganda suzishga chiqish taqiqlanadi?

17. Suv havzalarida kemalarining harakatlanish tartibi qaysi normativ-hujjat bilan belgilab qo‘yilgan?

18. Qaysi holatlarda kemalar kema reyestridan chiqariladi?

19. Kemani texnik ishlatish deganda nimani tushunasiz?

20. Kemalar foydalanish davrida qanday talablarga javob berishi shart?

21. Chet el noharbiy va harbiy kemalarining O‘zbekiston Respublikasining ichki suvlariga, portlariga (reydlariga) kirishi va bo‘lishi tartibi qaysi normativ hujjat bilan belgilab qo‘yilgan?

22. Chet el noharbiy kemalarining O‘zbekiston Respublikasining ichki suvlariga, portlariga (reydlariga) kirishi va bo‘lishi uchun ruxsat qaysi vakolatli davlat organi tomonidan beriladi?

### III. Temir yo‘l transporti sohasi bo‘yicha

(*Temir yo‘l transporti xodimlari uchun*)

1. Mahalliy va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni hamda yuklarni tashish faoliyatini litsenziya talablari va shartlari?

2. Temir yo‘lning ostki tuzilishi nimalardan iborat?

3. Temir yo‘l shoxobcha yo‘llarini, shuningdek, yuklash, tushirish hamda vagon va konteynerlarni tozalash uchun mo‘ljallangan qurilmalarni qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini kelishish qaysi davlat organi bilan kelishiladi hamda qanday talab va shartlari mavjud?

4. Vagonlar stansiya yo‘llarida mahkamlanganda tormoz boshmoqlarini qaysi

joylarga o‘rnatish taqiqlanadi?

5. Chiqish svetoforlariga ega bo‘lmagan yo‘llardan, shuningdek svetoforlar nosozligida poyezdlar qanday jo‘natiladi?
6. Qanday hodisalar avariya deb tavsiflanadi?
7. Qanday nosozliklarda avtoblokirovka tizimidan foydalanish to‘xtatiladi?
8. Tezlikni pasaytiradigan doimiy disklar, qayerda va qanday o‘rnatiladi?
9. Stansiyaning texnikaviy-boshqaruv dalolatnomasini (TRA) kim ishlab chiqadi?
10. Poyezd va harakatdagi temir yo‘l tarkibi birligi tushunchasiga tarif bering?
11. Temir yo‘l transportida harakat xavfsizligi talablarining buzilishi bilan bog‘liq transport hodisalari keltirib chiqaradigan oqibatlariga qarab qaysi turlarga tasniflanadi?
12. Qanday hodisalar poyezdlar halokati deb tavsiflanadi?
13. Umumiyl foydalanishdagi temir yo‘llari tushunchasiga tarif bering?
14. Ko‘rinadigan signallar foydalilaniladigan vaqtiga qarab qanday turlarga bo‘linadi?
15. Svetoforlar qanday turlarga bo‘linadi?
16. Stansiyada kirish svetoforining taqiqlangan ko‘rsatkichi bilan poyezdni qabul qilishni tashkil etish tartibi.
17. Stansiyalarda manyovr ishlari qanday tezliklarda amalga oshiriladi?
18. Elektrlashgan temir yo‘llarda kontakt tarmog‘ining kuchlanishlari darajasi qanday?
19. Tormoz boshmoqlarida qanday kamchiliklari bo‘lganda foydalanish taqiqlanadi?
20. Temir yo‘l harakat tarkibining gabariti tushunchasini ta’riflab, tushuntirib bering?
21. Qanday vagonlarni poyezdgaga ulash taqiqlanadi?
22. Harakatlanuvchi tarkibning umumiyl foydalilaniladigan temir yo‘llarga chiqishi uchun ruxsat etishga oid talab va shartlar?
23. Poyezd tezligini pasayishini talab qiladigan joylarni to‘sish, ularni o‘rnatish masofasi, ya’ni “A” masofasi qancha?
24. Harakatdagi tarkibni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun arizaga qanday hujjatlarni ilova qilinadi?
25. Infratuzilma obyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ariza beruvchi arizaga qanday hujjatlarni ilova qilgan holda YaIDXP orqali taqdim etadi?
26. Xavf signallar turlari qanday?
27. Takrorlovchi svetoforlar, ishoralari va qo‘llanishi qanday?
28. Temir yo‘l infratuzilmasiga nimalar kiradi?
29. Shartli ruxsat beruvchi signal qayerda o‘rnatiladi va amal qilish tartibi?
30. Strelkali o‘tkazgichlarning nosozliklari?

31. Poyezdlar va transport vositalari harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi nosozlik aniqlanganda kesishma navbatchisining xatti-harakati qanday?
32. Strelkali o'tkazgichlar qanday qismlardan iborat?
33. Inshootlarning yaqinlashish gabariti nima?
34. Harakatdagi temir yo'l tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti qanday tartibni belgilaydi?
35. Kontakt sim osmasining rels kallagi sathidan qanday balandlikda o'rnatiladi?
36. Qanday tortuvchi harakat tarkibi turlari mavjud?
37. Vagon va lokomotivlarda avtoulagichlarning rels kallagidan qanday balandlikda bo'ladi?
38. Vagonlar qaysi asosiy qismalardan tarkib topgan?
39. Temir yo'l stansiyalarni asosiy vazifalari nimalardan iborat?
40. Ikki rels ulamasidagi bo'shliqning me'yori qancha?
41. Petarda qaysi vaqtarda qo'llaniladi va portlaganda nima ish amalga oshiriladi?
42. Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi buzilishi hodisalari yuzasidan o'tkaziladigan xizmat tekshiruvi tartibi hamda xizmat tekshiruvi necha kundan o'tmasligi lozim?
43. Stansiyada chegara ustunlari qayerda va qancha masofada o'rnatiladi?
44. Elektr markazlashtirish qurilmalari nimalarni ta'minlashi kerak?
45. Transport vositasi haydovchisi temir yo'l kesishmasiga yaqinlashib kelayotgan poyezdni temir yo'l kesishmasidan qancha ko'rish imkoniyati bo'lmasa, temir yo'l kesishmasining ko'rinish sharoiti qoniqarsiz hisoblanadi?
46. Yo'llar, strelkali o'tkazgichlar, signallashtirish qurilmalari, aloqa va kontakt tarmog'i qurilmalarini nosozligini aniqlagan stansiya navbatchisi birinchi navbatda qanday ishlarni amalga oshiradi?
47. Harakatdagi tarkib va infratuzilma obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning qanday talablari hamda shartlari mavjud?
48. Yo'lovchi poyezd peregonda majburan to'xtaganda to'sishni kim amalga oshiradi?
49. Poyezd mashinisti temir yo'l kesishmasini qancha masofada ko'rish imkoniyati bo'lmasa, temir yo'l kesishmasining ko'rinish sharoiti qoniqarsiz hisoblanadi?
50. Manyovr svetoforlarining ko'rsatishi qancha masofada aniq ko'rinishi lozim?
51. Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi buzilishi hodisalari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruv yig'majild materiallari qaysi tashkilotga, qancha muddatda taqdim etilishi lozim?
52. Stansiyada poyezdlarni qabul qilish va jo'natishni qaysi xodim boshqaradi?
53. Strelka o'tkazgichlar qanday turlarga bo'linadi?

- 54.** Harakatdagi tarkib va infratuzilma obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar?
- 55.** Kesishmani yopish uchun qaysi tashkilot tashabbus qilishga haqli va bu haqida necha kun oldin e'lon berishi kerak?
- 56.** Saralash stansiyalarining asosiy vazifalari?
- 57.** Kirish, o'tish va to'siq svetoforlarining qizil, yashil, sariq rang ko'rinishlari to'g'ri uchastkada kamida necha metrni tashkil qilishi lozim?
- 58.** O'lchov shablonlari, testerlarda metrologik tekshiruv (sinov) o'tkazish davriyiligi?
- 59.** Ikki rels izining oralig'idagi minimal torayishi qancha masofani tashkil qiladi?
- 60.** O'tish (proxodnoy) svetoforida bitta sariq chiroq nimani anglatadi?
- 61.** Harakatdagi tarkib va infratuzilma obyektlarini davlat ro'yxatidan chiqarish tartibi?
- 62.** Harakatdagi tarkib va infratuzilma obyektlaridan foydalanishni vaqtinchalik to'xtatish tartibi?
- 63.** Temir yo'l transporti xodimlariga qaysi holatda o'z vazifalarini bajarish man etiladi?
- 64.** Harakatdagi temir yo'l tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga asosan temir yo'l infratuzilmasi obyektlari ro'yxati?
- 65.** Temir yo'l transportida qanday signal turlari mavjud?
- 66.** Yuk tashishda ishlatiladigan lokomotivlar, shuningdek, maxsus harakatdagi temir yo'l tarkiblariga qanday qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim?
- 67.** Yuk tashish va yo'lovchi tashishda ishlatiladigan hamda bitta mashinist bilan xizmat ko'rsatadigan lokomotivlar qo'shimcha ravishda qanday qurilmalar bilan jihozlanishi lozim?
- 68.** Yo'lovchilar tomonidan tashilayotgan qo'l yukini tortish uchun tarozilar qayerda o'rnatiladi?
- 69.** Kirish svetoforining vazifasi?
- 70.** Yo'lovchi tashish poyezdlarida necha yoshgacha bo'lgan bolalarga tarif qiyimatidan 50 foiz chegirma bilan alohida joy beriladi?
- 71.** Temir yo'l transportida harakat xavfsizligi buzilishi hodisalari bo'yicha tuzilgan chora-tadbirlar rejasi qaysi tashkilotga va necha kun muddatda taqdim etiladi?
- 72.** Bagaj vaznini qo'shimcha ravishda tekshirishga haq to'lanadimi?
- 73.** Ikki yo'l liniyalari o'qlari orasidagi masofalari qancha bo'lishi kerak?
- 74.** Elektr markazlashtirish qurilmalari nimalarga yo'l qo'ymasligi kerak?
- 75.** Avtomatlashgan temir yo'l kesishmasi deganda nimani tushunasiz?
- 76.** Feldyeger (harbiy) xizmati xodimlarining poyezdda o'zi bilan birga qancha qo'l yukini bepul tashish huquqiga ega?

77. Strelka nazorat qulflari nimalarni bajarishi kerak?
78. SSB va aloqa liniyalarining ishdan chiqishida ularni tiklash ketma-ketlik tartibi?
79. Manyovrlar rahbarining majburiyatları nimalardan iborat?
80. Manyovrlarni bajarayotganda lokomotiv brigadasi nimalarga amal qilishi shart?
81. Texnik nosozliklar sababli, harakatlanish yo‘lidagi yo‘lovchilar tashish poyezdidan vagon uzib qoldirilsa harakat xavfsizligi buzilishlarining qaysi turi sifatida tasniflanadi?
82. Kirish svetoforida ikkita sariq chiroq, shundan yuqoridagisi miltillovchi nimani anglatadi?
83. Peregon va stansiyalarda kontakt tarmoq tayanchlari temir yo‘l izlaridan qanday masofaga o‘rnataladi?
84. Lokomotivning tok qabul qilish moslamasida kuchlanish me’yori qancha?
85. Poyezdlar harakati xavfsizligiga mas’ul bo‘lgan temir yo‘l xodimlarining aybi bilan poyezd avtotransport vositasi yoki boshqa o‘zi yurar mashina bilan to‘qnashsa, bu harakat xavfsizligi buzilishlarining qaysi turi sifatida tasniflanadi?
86. Yo‘lovchi o‘zi bilan birga yo‘lovchi tashish poyezdida yo‘l haqi to‘lamasdan necha yoshgacha bo‘lgan bolani alohida joy berilmasdan olib yurish huquqiga ega.
87. Qanday nosozliklar bo‘lganida, lokomotiv va motorvagon harakat tarkibini foydalanishga chiqarish man etiladi?
88. Temir yo‘l transportida ichki va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchilar va yuklarni tashish huquqini beruvchi litsenziyalarni (litsenziya varaqalarini) qaysi vakolatli organ tomonidan beriladi?
89. Motorvagonli harakatdagi tarkib qanday qurilmalar bilan jihozlanishi lozim?
90. Qanday stansiyalarda chipta kassalari bo‘lishi lozim?
91. Poyezdni taqiqlovchi ishoradan o‘tib ketishi deganda nimani tushunasiz?
92. Poyezdlar harakat grafigi nimalarni ta’minlashi kerak?
93. Temir yo‘l transportida manyovr harakatlari deganda nimani tushunasiz?
94. Temir yo‘l kesishmalarida texnik ko‘rik muddatda o‘tkaziladi? Komissiyaga kim tomonidan qaysi tashkilotlar jalb qilinishi mumkin?
95. Qanday qo‘riqlanmaydigan temir yo‘l kesishmalariga navbatchi xodim qo‘yish lozim?
96. Qanday harakatdagi tarkiblarni, vagonlarni turtki bilan manyovr qilish va tepachadan tarqatish taqiqlanadi?
97. Temir yo‘lda rels ulamasidagi gorizontal va vertikal chiqishlar va ularning me’yorlari?
98. Muhofaza boshi berk yo‘l nima vazifa bajaradi?
99. Texnologik “Okno” nima?

**100.** Yo‘lovchilar va o‘z xizmat vazifalarini bajarayotgan tashuvchi xodimlari o‘rtasida yuzaga keladigan barcha nizo va bahslar kim tomonidan hal qilinadi?

#### **IV. Yo‘l -qurilish ishlari nazorat qilish boshqarmasi va hududiy bo‘limlari xodimlari uchun:**

##### **Avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha**

**1.** Yangi yotqizilgan monolit beton qoplamani parvarishlash qancha muddatgacha amalga oshiriladi?

**2.** Avtomobil yo‘llarida qum-shag‘al aralashmali qurilgan asosning zichligi vizual qanday aniqlanadi.

**3.** Asfaltbeton qorishmalari nimaga asosan tiplarga ajratiladi.

**4.** Avtomobil yo‘llarini zichlashda katoklarning harakatlanish jarayoni qanday amalga oshiriladi?

**5.** Avtomobil yo‘llarida joyida aralashtirish usulida tayyorlangan qorishmalardan asos va qoplamar qurilganda sifat nazorati va namuna olish ishlari qanday amalga oshiriladi?

**6.** Asfaltbeton qorishmalarini yotqizishda ko‘ndalang va bo‘ylama choklar ulanishi qanday bajariladi?

**7.** Asfaltbeton qorishmasini zichlash ishlarida katoklar soni qanday aniqlanadi?

**8.** Issiq Asfaltbeton qoplamasini yotqizilgandan keyin zichlanish koeffitsientini aniqlash uchun namunalar necha kundan so‘ng olinadi?

**9.** Monolit beton qoplama yotqizilgandan so‘ng qancha vaqt dan keyin deformatsion choklar kesiladi?

**10.** Nishablik qanday aniqlanadi?

**11.** Asfaltbeton qorishmasi necha gradus temperaturada ishlab chiqariladi?

**12.** Asfaltbeton qorishmasi necha gradus temperaturada yotqiziladi?

**13.** Ko‘prik oraliq qurilmalari gidroizolyatsiyasi qanday ob-havo sharoitlarida amalga oshiriladi?

**14.** Temirbeton konstruksiyalarini qurishda qo‘llaniladigan hidrofobizatsiyasi usullari.

**15.** Ko‘prik inshootlarida qish davrida beton ishlarini olib borishda qanday maxsus choralar qabul qilinishi lozim?

**16.** Ko‘prik inshootlarini saqlash va ta’mirlash ishlari tarkibi nimadan iborat?

**17.** Ko‘prikler deformatsion choklarining buzilishini oldini olish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?

**18.** Qanday ko‘prikler kichik ko‘prikler deyiladi?

**19.** Sel davrida ko‘priklarning oraliq tayanchlarni himoyalash tadbirlari nimalardan iborat?

**20.** Ko‘prik inshootlarini qurishda qo‘llanishi mumkin betonning eng kam

mustahkamligi?

21. Yo‘l to‘shamasi deganda nimani tushunasiz?
22. Yo‘l to‘shamasi konstruksiyasining qanday turlari mavjud?
23. Avtomobil yo‘llari to‘g‘risidagi qonunni buzilganligi uchun Yo‘l idoralarining javobgarliklari nimalardan iborat?
24. Qattiq yo‘l to‘shamalari deb qanday to‘shamalarga aytildi:
25. Asfaltbeton qorishma deb nimaga aytildi:
26. Issiq asfaltbeton qorishma uchun qanday markali bitum ishlatiladi:
27. Sovuq asfaltbeton qorishma uchun qanday markali bitum ishlatiladi
28. Avtomobil yo‘llarining asosiy elementlariga nimalar kiradi.
29. Yo‘l qoplamasi deganda nimani tushunasiz.
30. Beton qoplamarida ko‘ndalang va bo‘ylama choklar nima vazifasini bajaradi?
31. Qatnov qismi deganda nimani tushunasiz.
32. Xarakat tasmasi deganda nimani tushunasiz.
33. Ko‘prik tayanchining vazifalari(opory mostov).
34. Ko‘priklarni ekspluatatsiya jarayonida chegaraviy holat deb qaysi holatda aytildi?
35. Poydevor qurishda temirbeton qoziqlarni (svay) qo‘llash sabablari.
36. Yo‘l qoplamasi bilan yo‘l to‘shamasi farqi qanday?
37. Beton qoplamasida yoriqlar paydo bo‘lishini oldini olish maqsadida qanday amallar amalga oshiriladi?
38. Ko‘priklarda qo‘llaniluvchi kauchuk materiallar (ROCh) ni ishlatishdan maqsad?
39. Avtomobil yo‘llarni qurishda foydalilaniladigan asfaltbeton qorishmalar qaysi normativ hujjatga asosan ishlab chiqiladi?
40. Asfaltbeton qorishmalarda sinov ishlari qaysi normativ bo‘yicha amalga oshiriladi?
41. Avtomobil yo‘llarni ahamiyati jihatidan qaysi turlarga bo‘linadi?
42. Avtomobil yo‘llarni necha kategoriya bo‘linadi?
43. Avtomobil yo‘llar kategoriyasi bo‘yi harakat jadalligini aytib bering.
44. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 99-moddasi va 147-moddasi bo‘yicha qaysi holatlarda huquqbuzarga nisbatan ma’muriy huquqbazarli to‘g‘risida bayonnomasini rasmiylashtiriladi.
45. Bajarilishi majbur bo‘lgan ko‘rsatma qaysi holatlarda rasmiylashtiriladi.
46. Bajarilishi majbur bo‘lgan ko‘rsatmani ijrosi ta’minlash muddati necha kun belgilanadi.
47. Ijro dalolatnomasi kimlar tomonidan imzolanadi va nazorat qilinadi.
48. Talabnomasini, taqdimnomasini qaysi holatda beriladi va ijrosi qanday

ta'minlanadi.

49. Qaysi holatlarda nazorat tadbirlari natijasi bo'yicha to'plangan materiallar huquq-targ'ibot organlarga huquqiy baho berish uchun beriladi.

50. Avtomobil yo'llarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlar va joriy ta'mirlash qaysi normativ hujjatlar asosida loyihalanadi.

51. Loyihalarga qurilish jarayonida qanday va kimlar tomonidan o'zgartirishlar kiritiladi.

52. Tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlarida xatolik aniqlansa buyurtmachi, pudratchi va loyihachining vazifasi nimadan iborat bo'ladi.

53. Mualliflik nazorati nima?

54. Mualliflik nazorati jurnali qanday va kimlar tomonidan yozib boriladi.

55. Ishlab chiqarish jurnali nima va kimlar tomonidan to'ldirilib boriladi.

56. Qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS) nima va u qaysi hujjatlarda aks etgan.

57. Ishlab chiqarish loyihasi (PPR) nima va kim tomonidan ishlab chiqiladi.

58. Qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS) va ishlab chiqarish loyihasi (PPR)ni o'rtasidagi farqi nima?

59. Qaysi yo'l qurilish turlarida qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS) va ishlab chiqarish loyihasi (PPR)lar ishlab chiqilmaydi.

60. 1-toifali yo'l to'siqlari nima va uni o'lchamlari qancha.

61. Yo'l qurilishida serpantina qaysi holatlarda quriladi.

62. Yo'l qurilishida viraj qaysi holatlarda quriladi.

63. Virajlarda suv qochirish inshootlar loyihalash va qurish.

64. Avtomobil yo'llarni qurish va ta'mirlash bo'yicha davlat dasturlari va ularni ijrosi qanday ta'minlanadi.

65. Avtomobil yo'li nima?

66. Avtomobil yo'llarni tog'li hududda, cho'l sharoitida va yer osti suvlari yuqori bo'lgan hududlarda yo'l qurilishi alohida jihatlarni gapirib bering.

67. Yo'l poyini tuproqdan ko'tarishda optimal namlik va zichlanish koeffitsienti qanday aniqlanadi.

68. Asfaltbeton qoplamani suv shimuvchanligi nima va u normativ hujjatdagi ko'rsatkichlarga qanday erishiladi.

69. Yo'l qoplamasni, yo'l cheti (обочина) loyihaviy qiyaligi qancha bo'ladi.

70. Avtomobil yo'llarni qurilishida sifat nazorati kimlar va qaysi tashkilotlar tomonidan olib boriladi.

71. Yo'l qurilishida kam sementli beton (тощий бетон) qaysi hollarda loyihalandi va quriladi.


72. Yo'l qurilishida laboratoriya sinovi o'tkazishda namunalar olish va namunalarni obyektdan laboratoriyaning yetkazish va sinov o'tkazishda qanday hujjatlar tuziladi.

73. Ma'qullagan laboratoriya va akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriya farqini gapirib bering.

74. Sementbeton qattiqligi qanday birlik bilan belgilanadi va u qanday o'lchanadi.
75. Yo'l cheti qiyaligi (откос замполотна) bo'yicha 1:4 nimani bildiradi.
76. Yo'lning tik qiyaligi nechchi %dan oshmasligi kerak.
77. Qiyalikni loyihada belgilashda promil %o ishlatiladi, bu nima.
78. Yo'l poyini tuproqdan ko'tarishda zichlanish koeffitsienti qanday aniqlanadi.
79. Trangulyatsion punkt va reper nima.
80. Niviler va teodalit asboblarni qanday o'lchovlar bajaradi.
81. Yo'l qurilishida geodezik asbob yordamida o'lchashda absolyut va nisbiy balandlik (абсолютные относительные высотные отметки) farqini aytинг
82. Yo'l qurilishida davlat nazoratini amalga oshirishga oid normativ hujjatlar to'g'risida aytib bering?

## K E L I S H I L D I:

Karimov Jamshid  
Abduhamidovich




Inspeksiya boshlig‘i

Rasulov Bekzad  
Iskandarbekovich


Vazirning xavfsizlik masalalari  
bo‘yicha maslahatchisi

Turg‘unov Sanjar  
Tursunovich




Inspeksiya boshlig‘i  
o‘rinbosari – boshqarma  
boshlig‘i

Qoraboev Baxodir  
Qoraboevich




Inspeksiya boshlig‘i  
o‘rinbosari – boshqarma  
boshlig‘i

Abduraxmanov A’zam  
Abdulxaevich




Inspeksiya boshlig‘i  
o‘rinbosari – boshqarma  
boshlig‘i

Murtazaev Jamshid  
Baxodirovich




Transport vazirligi Yuridik  
bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari

Ruzmetova Shirin  
Kurvandurdievna



Inspeksiya Inson resurslarini  
rivojlantirish va boshqarish  
bo‘limi boshlig‘i

Ochilov O‘ktam  
Rustam o‘g‘li



Inspeksiya mehnat muhofazasi  
va texnika xavfsizligi bo‘yicha  
bosh mutaxassis (*korrupsiyaga  
qarshi kurashish bo‘yicha  
ma’sul*)